TARIX, SIYOSAT, JAMIYAT VA FALSAFANING AKTUAL MUAMMOLARI
I-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI
Issue - 9(2026) Available at www.uznauka.uz

"QISASI RABG'UZIY" ASARI QO'LYOZMALARIDA ISLOMIY PAYG'AMBARLAR TARIXI VA DINIY MANBALARDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Anorqulova Dilobar
Mustaqil tadqiqotchi
Elektron pochta: ilmiyizlanuvchi@gmail.com

Annotatsiya. *Tezisda Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarining O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 6227 va 6685-inventar raqamli qo'lyozma nusxalarida islomiy manbalardan foydalanish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Asarning adabiy-diniy va tarixiy-diniy manbalari hamda Qur'on oyatlari, hadislar, klassik tafsirlar va tarixiy xabarlardan iqtibos keltirish usullari yoritilgan. Ikki nusxa o'rtasidagi matniy va mazmuniy tafovutlar ko'rsatilib, ular kotiblar kiritgan tahrir va izohlar natijasida yuzaga kelgani asoslangan. Xulosada qo'lyozmalar Markaziy Osiyoda islom istoriografiyasining shakllanishini o'rganishda birlamchi manba ekani ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *"Qisasi Rabg'uziy", Nosiruddin Rabg'uziy, qo'lyozma, manbashunoslik, matnshunoslik, payg'ambarlar tarixi, tafsir, islom istoriografiyasi.*

TARIX, SIYOSAT, JAMIYAT VA FALSAFANING AKTUAL MUAMMOLARI
I-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI
Issue - 9(2026) Available at www.uznauka.uz

ИСТОРИЯ ИСЛАМСКИХ ПРОРОКОВ И ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕЛИГИОЗНЫХ ИСТОЧНИКОВ В РУКОПИСЯХ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КИСАСИ РАБГУЗИ»

Аноркулова Дилобар

Независимый исследователь

Электронная почта: ilmiyizlanuvchi@gmail.com

Аннотация. В тезисе проводится сравнительный анализ особенностей использования исламских источников в рукописных списках произведения Насируддина Рабгузи «Кисаси Рабгузи» под инвентарными номерами 6227 и 6685, хранящихся в фонде Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни АН Республики Узбекистан. Освещены литературно-религиозные и историко-религиозные источники произведения, а также приемы цитирования аятов Корана, хадисов, классических тафсиров и исторических преданий. Показаны текстовые и содержательные расхождения между двумя списками и обосновано, что они возникли в результате редакторской правки и пояснений, внесенных переписчиками. В заключении подчеркивается, что рукописи являются первоисточником для изучения становления исламской историографии в Центральной Азии.

Ключевые слова: «Кисаси Рабгузи», Насируддин Рабгузи, рукопись, источниковедение, текстология, история пророков, тафсир, исламская историография.

TARIX, SIYOSAT, JAMIYAT VA FALSAFANING AKTUAL MUAMMOLARI
I-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI
Issue - 9(2026) Available at www.uznauka.uz

THE HISTORY OF THE ISLAMIC PROPHETS AND FEATURES OF THE USE OF RELIGIOUS SOURCES IN THE MANUSCRIPTS OF "QISASI RABGHUZI"

Anorqulova Dilobar
Independent researcher
E-mail: ilmiyizlanuvchi@gmail.com

Abstract. The thesis offers a comparative analysis of how Islamic sources are used in the manuscript copies of Nasiruddin Rabghuzi's "Qisasi Rabghuzi" held under inventory numbers 6227 and 6685 in the collection of the Abu Rayhan Biruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan. The literary-religious and historical-religious sources of the work are described, together with the ways in which Quranic verses, hadiths, classical tafsirs and historical reports are quoted. Textual and content differences between the two copies are identified, and it is argued that they result from editorial changes and explanations introduced by scribes. The conclusion stresses that the manuscripts are a primary source for studying the formation of Islamic historiography in Central Asia.

Keywords: "Qisasi Rabghuzi", Nasiruddin Rabghuzi, manuscript, source studies, textual criticism, history of the prophets, tafsir, Islamic historiography.

KIRISH. Markaziy Osiyo yozma yodgorliklarini manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish, ularning islom sivilizatsiyasi va tarixshunosligida tutgan o'rnini xolis baholash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Nosiruddin Rabg'uziyning hijriy 710 (milodiy 1309–1310) yilda yaratilgan "Qisasi Rabg'uziy" asari turkiy xalqlar adabiy va diniy-

tarixiy tafakkurining betakror namunasi hisoblanadi [4; 5]. Ushbu asar o‘zidan avvalgi arab va fors tillaridagi istoriografik an‘analarni davom ettirgan holda, payg‘ambarlar tarixini turkiy tilda tizimlashtirgan birinchi yirik nasriy manbadir.

Tadqiqotning maqsadi O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 6227 va 6685-inventar raqamli “Qisasi Rabg‘uziy” qo‘lyozma nusxalarida [1; 2] islomiy manbalardan (Qur‘on oyatlari, hadislar, klassik tafsirlar va tarixiy xabarlar) foydalanish metodologiyasini va ushbu manbalarning matndagi funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA). Manbalar tanqidi. “Qisasi Rabg‘uziy” asari shunchaki badiiy-didaktik rivoyatlar to‘plami bo‘lmay, balki jiddiy manbaviy bazaga tayangan holda yozilgan. Muallif o‘z asarini yaratishda asosan ikki turdagi — adabiy-diniy va tarixiy-diniy manbalarga tayangan [3; 5]:

– Adabiy-diniy manbalar: Qur‘oni Karim va unga yozilgan klassik tafsirlar (Majididdin Andigoniy, Imom Ya‘qub Sufyon va “Ehson ul-bayon” tafsiri) hamda Abu Is‘hoq Nishopuriy va Abul Hasan Kisoiylarning “Qisas al-anbiya” asarlari.

– Tarixiy-diniy manbalar: Tabariyning “Tarix ar-rusul va-l-muluk”, Ibn Kasirning xabarlari, shuningdek Imom Buxoriy va Abu Iso at-Termiziy (“Shamoili nabaviya”) to‘plamidagi hadislar.

Rabg‘uziyning islomiy istoriografiyaga oid eng muhim xususiyati shundaki, u turkiy matn orasida keltirilgan har bir muhim voqea yoki axloqiy xulosani tasdiqlash uchun Qur‘on oyatlaridan iqtibos keltirish usulidan unumli foydalangan. Masalan, asarning 6227 va 6685-nusxalari muqaddimasida insonning yaratilishi, uning boshqa mavjudotlardan afzalligi haqida fikr yuritilar ekan, bu holat “Isro”

surasining 70-oyati (“Ualaqad karramna bani Adama...”) hamda “Bayyina” surasining 7-oyati bilan dalillanadi [1; 2].

O‘zR FA ShI fondida saqlanayotgan QR-6227 va QR-6685 nusxalari islomiy manbalardan foydalanish darajasi va ularning tahriri bo‘yicha bir-biridan muayyan darajada farqlanadi [1; 2]:

– QR-6227 nusxasi: Nisbatan ixcham va matniy jihatdan rivoyat xarakteriga ega. Ushbu nusxada arabiy jumlalar va oyatlar matn ichida berilib, ularning ketidan qisqa turkiy tarjima va izohlari berib ketilgan. Qissalarda keltirilgan islomiy xabarlarning umumiy ma‘nosiga ko‘proq urg‘u berilgan. Masalan, Luqmoni Hakim qissasida hikmat tushunchasi “odamlar o‘rtasida adolat bilan ish tutish” tarzida sodda va lo‘nda izohlanadi.

– QR-6685 nusxasi: Ushbu nusxada didaktik va teologik (kalamiy) izohlar ancha boyitilgan va kengaytirilgan variant sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda payg‘ambarlik va hikmat o‘rtasidagi tanlov, ularning islomiy jamiyatdagi o‘rni chuqurroq ilmiy-diniy tahlil etilgan. Luqmoni Hakim qissasida hikmat “to‘g‘ri so‘zlash va yaxshi amal qilish” deb talqin etilib, axloqiy-huquqiy mazmun kengaytiriladi.

QR-6685 nusxasida Iskandar Zulqarnayn faoliyatiga oid qissada Konstantinopol (Istanbul) shahrining bino qilinishi kabi qo‘shimcha tarixiy-geografik ma‘lumotlar hamda “payg‘ambarlarning barcha xalqlarga zarurligi” haqidagi teologik xulosalar kiritilgan. QR-6227 nusxasida esa ushbu voqealar qisqaroq bayon qilinib, batafsil izohlarga berilmagan.

XULOSA. QR-6227 va QR-6685 qo‘lyozma nusxalarining qiyosiy-tanqidiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Rabg‘uziy o‘z asarida islomiy manbalarni shunchaki ko‘chirmay, balki ularni turkiy dunyoqarash va adabiy til mezonlariga

moslashtirgan holda qayta ishlagan. Qo‘lyozmalardagi matniy va mazmuniy tafovutlar kotiblarning o‘z davri diniy-ma‘rifiy talablariga mos ravishda matnga kiritgan tahrirlari hamda tushuntirishlari (interpolyatsiya) natijasida yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, “Qisasi Rabg‘uziy” asarining 6227 va 6685-nusxalari Markaziy Osiyoda islom istoriografiyasining shakllanishi, arabiy-forsiy manbalarning turkiy muhitga singishi va payg‘ambarlar tarixiga oid bilimlarning xalq orasida tarqalish mexanizmlarini o‘rganishda birlamchi va bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nosiruddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, inv. № 6227.

2. Nosiruddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, inv. № 6685.

3. Islomov Z., Maxsudov D., Tohirov J. Islom manbashunosligi. Toshkent: Qaqnus Media, 2019. 363 b.

4. Rabg‘uziy, Nosiruddin Burhonuddin. Qisasi Rabg‘uziy. 1-kitob. Toshkent: Yozuvchi, 1990. 240 b.

5. Fozilov E.I. Nosiruddin Rabg‘uziy va uning “Qisasi Rabg‘uziy” asari. Toshkent: Yozuvchi, 1990. 240 b.